

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**TEXNIK MEXANIKA
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:

100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi:

110000 – Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

60112300 – Texnologik ta'lim

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
TexMex0105	2023-2024	1	4	
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	O'zbek/rus	4		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. Texnik mexanika	60	60	120	
2.	<p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan oliy matematika, fizika, informatika, chizma geometriya fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Ishchi organlarning harakati va mexanik hodisalar o'rganiladigan "Materiallar qarshiligi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, amaliy mexanika" fanlari hamda turli inshootlar, mashina va mexanizm qismlarini tadbqiq qilish, hamda loyixalashning umumiy usullari o'rganiladigan texnika fanlari materiallar qarshiligi va mashina detallari ham mexanikaga taalluqlidir.</p> <p>Fanning vazifasi – Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashtirilishi va avtomatlashtirilishi hamda turli xil inshootlarni loyihalash ishlari umumtexnika fanlarining asosiy bo'lgan "Texnik mexanika"ni puxta o'rganishni talab etadi.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. Fanning qisqacha tarixi, statika. Bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi. Tekislikdagi va fazoviy kuchlar sistemasi. Og'irlik markazi.</p> <p>2-mavzu. Kinematikaga kirish. Kinematikaning asosiy tushunchalari. Nuqta harakat qonunining berilish usullari. Nuqta tezligi va tezlanishi. Qattiq jisimning tekis parallel harakati. Moddiy nuqta harakatini umumiy teoremlari.</p> <p>3-mavzu. Dinamikaga kirish. Dinamikaning asosiy qonunlari. Moddiy nuqta dinamikasi. Moddiy nuqta harakati differensial tenglamalari. Moddiy nuqta dinamikasining ikki asosiy masalasi.</p> <p>4-mavzu. Moddiy nuqtaning to'g'ri chiziqli tebranma harakatlari. Moddiy nuqtaning to'g'ri chiziqli erkin (garmonik) tebranma harakati. Moddiy nuqtaning so'nuvchi tebranma harakati. Moddiy nuqtaning majburiy tebranma harakati.</p> <p>5-mavzu. Materiallar qarshiligi fani. Asosiy tushunchalar. Ichki va tashqi kuchlar va ularni aniqlash metodi. Kuchlanishlar.</p> <p>6-mavzu. Deformatsiya turlari. Cho'zilish va siqilish deformatsiyasi. Cho'zilish va siqilish. To'g'ri sterjenning cho'zilish-siqilishi. Sterjen ko'ndalang kesim yuzalaridagi kuchlanishlar. Bo'yлама va ko'ndalang deformatsiyalar, Gruk qonuni.</p> <p>7-mavzu. Kuchlanish holatlari.</p>			

<p>Materiallarning mexanik xossalari. Tekis kuchlanish holatida ekstremal urinma kuchlanishlarni hisoblash. Mor doirasi. Sijjish va buralish deformatsiyasi.</p> <p>8-mavzu. Egilishda hosil bo'ladigan deformatsiyalar. Tekis egilish. Normal kuchlanishni hisoblash. Mustahkamlik shartlari. Balka egilgan o'qining differensial va universal tenglamalari. Egilish deformatsiyasi. Siqilgan sterjenlarning ustivorligi. Kritik kuchni aniqlash. Eyley formulatsidan foydalanish chegarasi.</p> <p>9-mavzu. Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi fanning asosiy tushunchalar. Mexanizmlarning tuzilishi va klassifikatsiyasi. Kinematik juftlar klassifikatsiyasi. Tekis va fazoviy mexanizmlarni strukturaviy tahlili.</p> <p>10-mavzu. Mexanizmlar kinematikasi va dinamikasi. Mexanizmlarni kinematik analizi. Masshtab koeffitsienti. Mexanizmi kinematikasini grafik usulda tekshirish. Mexanizm tuzuvchi guruhlar. Accur guruhi. Tekis mexanizm zvenolari nuqtalarining tezlik va tezlanishlarini planlar tuzish yo'li yordamida aniqlash.</p> <p>III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bir nuqtada kesishuvchi kuchlar sistemasi, parallel kuchlarni o'rganish. 2. Tekislik va fazoviy kuchlar sistemasi. Og'irlik markazini o'rganish. 3. Harakat qonunining berilish usullari. Nuqta tezligi va tezlanishini o'rganish. 4. Qattiq jisimning ilgirilama, aylanma va tekis parallel harakati o'rganish. 5. Dinamikaning ikki asosiy masalasi, tebranma harakatni o'rganish. 6. Energiya va impulsning saqlanish qonuni. 7. Cho'zilish va siqilishni o'rganish. 8. Sijjishga ishlaydigan konstruktiviy elementlarini hisoblash 9. Valni buralishga hisoblash. 10. Balkalarni egilishga hisoblash. 11. Mexanizm zvenolarining erkinliklik darajasini aniqlash. 12. Grafik usulda mexanizmlarning kinematik analizi. 13. Mexanizmlarning tezlik va tezlanish planlarini qurish. 14. Tasmali uzatma geometriyasi va kinematikasi. 15. Chervyakli uzatmalar. Uzatmani geometriyasi va kinematikasi. <p>Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Cho'zilish va siqilishdagi elastiklik moduli E ni aniqlash. 2. Tekis va fazoviy (manipulyator) mexanizmlarning tuzilishini tekshirish 3. Silindrsimon tishli g'ildirakli reduktorlarning tuzilishini o'rganish hamda ularning parametrlarini aniqlash. 4. Chervyakli uzatma elementlari konstruktiviyalarini o'rganish. 5. Reduktorlarning konstruktiviyasini o'rganish.

<p>28. Muftalar va ularning vazifalari. 29. Boshqarilmaydigan (doimiy birlashtirilgan) qo'zg'almas va kompensatsiyalovchi) muftalar. 30. Boshqariladigan (ilashish va ishqalanish asosida boshqariladigan) va avtomatik boshqariladigan muftalar.</p>	<p>VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: Texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlarida rivojlanishi, kompyuterlashirish va boshqarish tizimining keng miqyosda qo'llanilishi texnika fanlariga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Shuning uchun loyihalangan mashinalar, ularning detallari mumkin qadar yengil, yetarli darajada mustahkam, ishqalanishga chidamli, davlat standartlariga to'liq mos keladigan bo'lishi shart. "Texnik mexanika" fani talabalarida yuqorida qo'yilgan talablarni ilmiy va texnikaviy dunyo qarashini shakllantirish vazifasini bajaradi. Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba: - "Texnik mexanika" fani hozirgi zamon texnikasining juda ko'p sohalarining ilmiy asoslarini tashkil etib, mexanikaning qonunlari va usullari, atrofimizda sodir bo'layotgan qator muhim hodisalarning qonuniyatlar asoslarini, zamonaviy texnikalarda qo'llanilayotgan mexanizmlarning aynan mexanika qonunlari asosida harakatlanishi va mexanika qonunlarining texnikada qo'llanilishi haqida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - Mexanikaning nazariy asoslariga, qonun-qoidalariga tayangan holda mexanizmlarni analiz va sintez qilish, mexanizmlar harakatidan mexanika masalalarni keltirib chiqarish va yechish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; Mexanikaning qonun-qoidalariga tayangan holda mustaqil ravishda fikrlash, muammolarni yechish gipotezalarini ilgari surish, ularni tahlil qilish va egallagan bilimlarni qaysi joylarda, qay tarzda qo'llash malakasiga ega bo'lishi kerak.</p>
<p>4.</p>	<p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • amaliy va laboratoriya mashg'ulotlar (masalalar yechish, mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hiyoa qilish uchun loyihalar
<p>5.</p>	<p>IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

<p>Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaing maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Bir tekislikda yotuvchi juft kuchlarni qo'shish. Juft kuchlarning sistemasiing muvozanat shartlari. 2. Harakati tabiiy usulida berilgan nuqtaning tezligi. 3. Doiraviy kesim yuzulda berilgan buralishidan hosil bo'lgan kuchlanish. 4. Mexanizmning asosiy turlari va turli vaziyatdagi planlarini qurish. 5. Yassi tasmalarni tayyorlash uchun ishlatiladigan materiallar. 6. Birikmalar, umumiy ma'lumot. Shponkali va shlitsali birikmalar. 7. Mexanizmlar dinamikasini. 8. Mexanizm zvenolariga ta'sir etuvchi kuchlar. 9. Inertsia kuchlari va momentlari. 10. Mexanizmlarni kinetostatik hisoblash. Jukovskiy ritchagi. 11. Mashina detallari fanining tarixi va vazifasi. 12. Mashina detallariga qo'yiladigan asosiy talablar. 13. Mashina detallarining ishqanlik qobiliyati va hisoblash mezonlari. 14. Detallarga ta'sir etadigan yuklanish, ularda hosil bo'ladigan kuchlanish. 15. Rezbalari birikmalar. Umumiy ma'lumotlar. 16. Rezbalarning asosiy turlari. Vintli juftdagi kuch nisbatlari. 17. Burovchi moment. Vintli juftning o'z-o'zidan tormozlanishi va foydali ish koeffitsiyenti. 18. Mustahkamlik darajalari, rezbalari detallar uchun ishlatiladigan materiallar va ruxsat etilgan kuchlanishlar. 19. Mexanik uzatmalar. 20. Frikstion uzatmalar, Tasmali uzatmalar, Zanjirli uzatmalar va ularning turlari. 21. Variatorlar. Tishli uzatmalar. Chervyakli uzatmalar, kinematikasi va geometriyasi. 22. Vallar va o'qlarning tuzilishi va ular uchun ishlatiladigan materiallar. 23. Vallarning loyihaviy va tekshiruv hisobi. 24. Sirpanish podshipniklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar va tasnifi. 25. Sirpanish podshipniklarini shartli hisoblash. 26. Dumalash podshipniklari to'g'risida umumiy ma'lumotlar va ularning tasnifi. 27. Mashinasozlikda ishlatiladigan mufta turlari.

6.	<p>X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shoobidov A. "Nazariy mexanika asoslari". O'quv qo'llanma. – T.: "Yangi avlod", 2008 yil. 2. Yuldashbekov S. "Materiallar qarshiligi". Darslik. – T.: "Voriz", 2006 yil. 3. Jo'rayev A. va boshqalar. "Mexanizm va mashinalar nazariyasi". O'quv qo'llanma. – T.: "G'ulom" 2004 yil. 4. Tojiboev R., Jo'raev A., "Mashina detallari". Darslik. – T.: "Yangi avlod", 2010 yil. <p>XI. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Mirziyoev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan biga quramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017 yil. 6. Asomutdinov N.S., Daminova R.B. "Nazariy mexanika". Uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2005 yil. 7. Asomutdinov N.S., Daminova R.B. "Nazariy mexanika fanidan masalalar yechishi". Uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2007 yil. 8. Muxamedsaidov B.K. "Mashina detallari" fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2014 yil 9. I.V.Misherskiy «Nazariy mexanikadan masalalar to'plami» //T.: «O'qituvchi.» 1996. 10. Asomutdinov N.S., Daminova R.B. "Nazariy mexanika". Uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2005 yil. 11. Asomutdinov N.S., Daminova R.B. "Nazariy mexanika fanidan masalalar yechishi". Uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2007 yil. 12. Muxamedsaidov B.K. "Mashina detallari" fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. – T.: "TDPU", 2014 yil <p>Axborot manbalari</p> <p>www.pedagog.uz www.cspi.uz www.pedagog.uz www.edu.uz www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK) www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal</p>
7.	<p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil "_____ " _____dagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sul: J.R.Butunov - CHDPU, "Texnologik ta'lim" kafedrasini o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: S.A.Baltabayev – Nizomiy nomidagi TDPU, Texnologik ta'lim metodikasi kafedrasini dotsenti R.S.Shermumamedov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Texnologik ta'lim" kafedrasini dotsenti</p>